

INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Abdixakimova Nargiza Abdulla qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax

davlat pedagogika universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: Ingliz tili

mutaxassisligi 2-kurs talabasi

Annotation: Mazkur maqolada bugungi globallashib borayotgan davrda texnika mo'jizasi sifatida qaralayotgan sun'iy intellekt, uning keng imkoniyatlari, xususan, xorijiy tillarni, jumladan, ingliz tilini o'rgatish jarayonida sun'iy intellekt yaratayotgan keng imkoniyatlar hamda afzalliklar talqin qilinadi. Shu jumladan, ingliz tilini o'rgatish jarayonida sun'iy intellektdan qanday foydalana olish va bu orqali qanday til o'rganish jarayonini osonlashtirish hamda samaradorlikni oshirish yo'llari va Sun'iy intellekt(SI) asosidagi vositalar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qilishi atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, Xorijiy tillarni o'qitish, Ingliz tili, ta'lim texnologiyasi, innovatsion metodika, raqamli ta'lim.

Annotation: This article examines artificial intelligence, which is regarded as a technological marvel in today's globalizing world, and its broad opportunities, particularly in the process of teaching foreign languages, including English. It analyzes the advantages created by artificial intelligence in English language instruction, ways of effectively using AI to simplify language learning, and methods to enhance learning efficiency. The article also thoroughly explores how AI-based tools contribute to organizing a learner-centered educational process by taking into account the individual needs of students

Keywords: Artificial intelligence, Foreign language teaching, English language, Educational technology, Innovative methodology, Digital education.

Аннотация: В данной статье рассматривается искусственный интеллект, который в современную эпоху глобализации воспринимается как технологическое чудо, а также его широкие возможности, особенно в процессе обучения иностранным языкам, включая английский. Анализируются преимущества, создаваемые использованием ИИ в преподавании английского языка, способы эффективного применения ИИ для упрощения процесса изучения языка и повышения его результативности. Кроме того, подробно исследуется, как инструменты, основанные на ИИ, способствуют организации

лично-ориентированного образовательного процесса с учетом индивидуальных потребностей учащихся.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, обучение иностранным языкам, английский язык, образовательные технологии, инновационная методика, цифровое обучение.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimining raqamlashuvi jadal rivojlanmoqda hamda ta'lim jarayonida turli xil raqamli texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda. Sun'iy intellekt — bu katta hajmdagi ma'lumotlardan aqlli mashinalarni yaratish jarayonidir. Tizimlar o'tmishdagi o'rganish va tajribalardan o'rganadi va insonga o'xshash vazifalarni bajaradi. Sun'iy intellekt 1956-yildan boshlab mustaqil fan sohasi sifatida qabul qilingan va o'sha yili sun'iy intellekt atamasi Dartmouz kollejida bo'lib o'tgan anjumanda John McCarthy tomonidan qo'llangan. Sun'iy intellekt ta'lim sohasida, til o'rganuvchilar ham o'rgatuvchilar o'rtasida, umuman olganda, jarrohlik amaliyotlarida, tur xil kasalliklarni oldini olish va ularni bartaraf etishda, jinoyatlarning oldini olishda va ko'plab sohalarda keng qo'llanilib kelmoqda.

Ta'lim sohasida sun'iy intellekting o'rni beqiyos. Ta'lim mazmunini tushunarli bo'lishiga, uning natijadorligini oshirishga hamda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni yaxshilashga yordam beradi. Dars jarayonlarini qiziqarli va qulay bo'lishini ta'minlaydi. Sun'iy intellekt ingliz tilini o'qitish jarayonida bir qancha vazifalarni bajaradi va (AI) zamonaviy ta'lim sohasida juda katta o'zgarishlar qilmoqda. Masalan, sun'iy intellekt

Bu texnologiya o'quvchilar uchun ham, pedagoglar uchun ham samarali imkoniyatlar yaratib, o'qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Individuallashtirilgan ta'lim jarayoni AI tizimlari talabalarning o'rganishga bo'lgan moyilligi, darajasi va tezligini hisobga olib, materiallarni individual tarzda taklif etadi. Bu har bir o'quvchi o'ziga qulay usulda bilim olishini ta'minlaydi. Sun'iy intellekt ta'lim oluvchilarning vaqtini tejashga va ta'limda sezilarli rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi. AI asosidagi repetitorlik xizmatlari: Aqlli o'quv dasturlari o'quvchining xatolarini zudlik bilan tahlil qilib, unga fikr-mulohaza beradi. Bu yondashuv murakkab mavzularni tez tushunishga va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Virtual yordamchila, ya'ni, Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan yordamchi tizimlar savollarga tez javob berish, eslatmalar yuborish va topshiriqlar bo'yicha ko'rsatmalar berish orqali talaba va o'qituvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Ma'muriy ishlarni avtomatlashtirish baholash, jadval tuzish, kurslarni rejalashtirish va hisobotlarni tuzish kabi ko'p vaqt oladigan jarayonlarni AI o'z zimmasiga ola oladi. Shu bilan o'qituvchi o'z vaqtini asosan dars sifatiga yo'naltiradi. Qulay ta'lim muhiti yaratish: Matnni ovozi tarzda o'qish, nutqni tanish, materiallarni tez izlash va ularga osongina kirish

imkoniyati o'quvchilarga bilim olishda qo'shimcha qulaylik beradi. Bu esa ta'limni hamma uchun ochiq va erkin qiladi. Chet tilini o'rganishni yengillashtirish AI asosidagi til platformalari talaffuz ustida ishlash, interfaol mashqlar bajarish, xatolar ustida ishlash hamda fikr-mulohaza olish imkonini beradi. Talabalar mustaqil o'rganish jarayonini qiziqarli tarzda davom ettira oladilar. Umumiy olib qaraganda, sun'iy intellekt ta'limni shaxsga yondashgan, samarali va innovatsion bo'lishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, ingliz tili kabi chet tillarini o'rganishda katta yordam bermoqda. Duolingo, Memrise, Lingoda, BBC Learning English kabi ta'lim platformalari AI imkoniyatlariga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ko'proq foydalanuvchini qamrab oladi. Natijada talabalar qayerda bo'lmasin, qulay va sodda tarzda til o'rganishlari mumkin bo'lmoqda. Ingliz tilini o'qitish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish samaradorligini oshirish metodlari mavjud bo'lib ularga intellektual o'qitish metodikalari, yakka tartibda o'tkaziladigan ta'lim dasturlari, til o'rganish davrini monitoringlashtirish va nutqni rivojlantirish va xorijiy tillarda ravon gaplashish metodlari hisoblanadi. Masalan, intellektual o'qitish metodlari; ushbu metodda avvalo til o'rganuvchining ingliz tilidagi bilimi tekshiriladi (til o'rganuvchining ingliz tili ko'nikmalari, ya'ni, to'tta yozish, o'qish, muloqot qilish ko'nikmasi va tinglash). O'rganuvchining bilim darajasi aniqlangandan so'ng munosib sun'iy intellekt qurilmasini tanlash va uni o'rganuvchi bilim darajasiga sozlash. Misol uchun, Duolingo, BBC Learning va boshqa sun'iy intellekt qurilmalari. Ikkinchi metodika, ya'ni, yakka tartibdagi ta'lim dasturlari bunda individual o'qish rejasini shakllantiriladi, o'rganuvchining qiziqishlari asosida mavzu tanlanadi, til o'rganishga jalb etuvchi vositalar kiritiladi hamda har bir o'rganilgan yangi bilim 20 minut orasida qiziqarli o'yinlar bilan mustahkamlanadi. Masalan, bugungi kunda ko'pchilik pedagoglar Kahoot kabi ilovalardan keng foydalanadi, ushbu ilovaga tur xil o'tilgan mavzularga doir bo'lgan test topshiriqlari yuklanadi va o'quvchilarga tur xil o'yin ko'rinishida taqdim qilinadi. Uchinchi metodika til o'rganish davrini monitoringlashtirish ya'ni til o'rgannish boshlangan Sana belgilab qo'yiladi va ma'lum bir sannada ma'lum bir darajaga yetish belgilanadi. Har kunlik dars soati belgilanadi, masalan, bir kunda o'rtacha 4 yoki 5 soat dars qilish uchun aniq reja shakllantiriladi. Bir kunda 30 ta yangi so'z o'rganish belgilab qo'yilgan bo'lsa, shu miqdordagi so'zlar yodlanib sun'iy intellekt yordamida test ko'rinishdagi savollarni ishlash orqali mustahkamlanishi mumkin. Sun'iy intellekt asosidagi topshiriq va vazifalar bajarilmasa yangi mavzuga o'tish avtomatik tarzda qulf(blok)lab qo'yilishi mumkin. Keyingi metodika nutqni rivojlantirish va xorijiy tilda ravon gapirish metodikasi hisoblanadi. Mazkur metodikada nutqni rivojlantirish uchun avvalo til o'rganuvchi xorijiy tildagi nutqlarni tinglash ko'nikmalarini shakllantirishi zarur. Buning uchun sun'iy intellekt tomonidan textlar o'qib berilishi mumkin. Xorijiy tilda ravon so'zlash ko'nikmasini shakllantirish uchun avvalo o'rganuvchining tinglab

tushunish, talaffuz va muloqot malakalarini rivojlantirish zarur. Sun'iy intellekt texnologiyalari bu jarayonda o'quvchiga katta yordam beradi, chunki ular real nutq muhiti yaratish imkonini beradi. Masalan, o'rganuvchi o'zida mavjud bo'lgan matnni yoki audio yozuvni sun'iy intellekt dasturiga joylashtirib, u orqali matnni tinglashi, talaffuzni solishtirishi va xatolarni aniqlashi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida o'quvchi interaktiv suhbatlar orqali o'z fikrini erkin ifoda etish, yangi so'z birikmalarini o'zlashtirish va tabiiy muloqot qilish tajribasini orttiradi. ChatGPT, Duolingo yoki boshqa AI asosidagi dasturlar o'rganuvchining talaffuzi, grammatikasi va so'z boyligini tahlil qilib, avtomatik tahrir va tavsiyalar beradi. Natijada, o'rganuvchi faqat eshitish va takrorlash emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda tilni faol qo'llashni o'rganadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida mashq qilish jarayoni o'quvchining ishonchini oshiradi, nutqni erkin ifoda etish malakasini shakllantiradi va chet tilini o'rganishga qiziqishini kuchaytiradi. Bundan tashqari, adaptive ta'lim tizimlari organuvchining bilim darajasiga qarab topshiriqlarni osonlashtiradi. Misol uchun, Duolingo dasturi til o'rganuvchilarning natija va javoblariga ko'ra topshiriq darajasini o'zgartiradi hamda interaktiv muloqot yaratish mexanizmi til o'rganishni yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Masalan, ChatGPT va Google Gemini tizimlarda o'rganuvchi real suhbat mashqlari orqali til o'rganishni yanada rivojlantiradi. Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AI vositalarini til o'rganish jarayonida qo'llash orqali o'quvchilar yozuv, kommunikatsiya va o'qib tushinish ko'nikmalarini 40-60 % tezroq rivojlantirishi kuzatiladi. AI vositalarida jarayonida vaqtni tejashga, undan samarali foydalanishga va tahlil jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o'qitish jarayonida joriy etish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shuningdek, sun'iy intellektning ta'lim jarayonida vaqt tejamkorligini oshirish, baholash jarayonlarini avtomatlashtirishda alohida ahamiyatga ega. Ammo shuni ham nazarda tutish kerakki, sun'iy intellektning til o'rganish, umuman, ta'lim tizimidagi keng imkoniyatlari bilan birgalikda salbiy oqibatlari ham mavjud. Ular o'rganish jarayonida o'quvchi shaxsining sun'iy intellektga tayanib qolishi bu orqali ijodiylik, mustaqil va tanqidiyl fikrlash ko'nikmasining pasayishi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun undan samarali va oqilona foydalanish zarur. Chunki, texnologiya rivojlanishni davom etar ekan, AI til ta'limida inqilob qilish potentsiali ham shunday o'zgarib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov.B & Karimov.S (2023)"Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt tizimlari"Toshkent fan va texnologiya.Johnson.M & Smith.P (2023)."Artificial intelligence in Language Education".Educational technology review,18(4)156-170.

2. Djampluatova, N. Ways to improve communicative competence in English in creating an integrative learning environment. – 2022.
3. Jalolov J. J., Makhkamova G. T., Ashurov Sh. S. English language teaching methodology.– Tashkent: Fan va texnologiya, 2015.
4. Karimova, M. (2025). TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 2(4.2), 43–45. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/102333>
5. Niyozov, N., Bijanov, A., Ganiyev, S., & Kurbonova, R. (2023). The pedagogical principles and effectiveness of utilizing ChatGPT for language learning. In E3S Web of Conferences (Vol. 461, p. 01093). EDP Sciences.